



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 41 537 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- aprel holatiga, birlik	2026- yil 1- aprel holatiga, birlik
Toshkent viloyati	36 169	41 537
Oqqo'rg'on tumani	892	1 020
Ohangaron tumani	958	1 132
Bekobod tumani	969	1 263
Bo'stonliq tumani	1 928	2 279
Bo'ka tumani	988	1 109
Quyi Chirchiq tumani	1 079	1 267
Zangiota tumani	4 480	5 041
Yuqori Chirchiq tumani	1 851	2 102
Qibray tumani	3 176	3 643
Parkent tumani	2 183	2 740
Piskent tumani	817	934
O'rta Chirchiq tumani	1 623	1 818
Chinoz tumani	965	1 051
Yangiyo'l tumani	1 671	1 947
Toshkent tumani	2 647	3 055
Nurafshon shahri	806	975
Olmalik shahri	1 477	1 706
Angren shahri	1 972	2 131
Bekobod shahri	1 223	1 273
Ohangaron shahri	804	923
Chirchiq shahri	2 429	2 716
Yangiyo'l shahri	1 231	1 412

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Iqtisodiy faoliyat turlari




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-martida 2 263 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 867 ta, sanoatda 294 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 270 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026- yil yanvar-mart oylarida, birlik
Toshkent viloyati	1 897	2 263
Oqqo'rg'on tumani	45	65
Ohangaron tumani	59	68
Bekobod tumani	62	104
Bo'stonliq tumani	111	168
Bo'ka tumani	64	83
Quyichirchiq tumani	49	66
Zangiota tumani	243	237
Yuqorichirchiq tumani	80	135
Qibray tumani	141	156
Parkent tumani	109	129
Piskent tumani	43	44
O'rta Chirchiq tumani	97	105
Chinoz tumani	52	58
Yangiyo'l tumani	104	91
Toshkent tumani	161	169
Nurafshon shahri	52	61
Olmaliq shahri	73	90
Angren shahri	66	109
Bekobod shahri	66	62
Ohangaron shahri	41	52
Chirchiq shahri	121	141
Yangiyo'l shahri	58	70


III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 47,6 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 2,1 % punktga ko'paygan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 697,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 24,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 412,5 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5 131,8 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 77,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 99,5 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 10 699,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 67,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 112,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Oqqo'rg'on (97,6%) tumani, hamda Bekobod (95,6 %), Yangiyo'l (93,7 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 6 883.3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 93,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 120,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Bekobod (99,5 %), Ohangaron (93,8 %) va Chirchiq (98,3 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 7 255,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 73,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 100,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Oqqo'rg'on (84,0 %), O'rtachirchiq (83,4 %), Parkent (82,9 %) va Bekobod (82,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 14 613,0 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 73,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 143,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Bo'ka (83,2 %), Oqqo'rg'on (80,5 %), tumanlarida hamda Yangiyo'l (84,1 %) shahri hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 396,1 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 77,0 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Olmaliq (98,8 %) shahar hamda Bo'stonliq (75,1 %), Ohangaron (74,3 %) tumanlarini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar- martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 578,1 mln AQSH dollarini yoki jami importning 40,3 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Olmaliq (96,6 %), Bekobod (85,6 %) shaharlarida hamda Piskent (62,2 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari



Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 36,0 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 0,8 % punktga kamaygan.

2026- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 50,6 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati -4,8 % punktini tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,5 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 1,6 % punktga kamaygan.

2026- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,0 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 0,5 % punktga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlaridynamikasi



V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari


Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 34,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida esa 49,5 % ga yetgan yoki 2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 15,2 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 57,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-

martida 33,1 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2022- yilning yanvar-martida 8,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 7,6 % bo'lgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 47,6 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 31,0 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarining ulushi 2022- yilning yanvar-martida 48,3 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 60,7 % yoki 12,4 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2022- yilning yanvar-martida 4,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 8,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmat ko'rsatishda 70.8 %ni, qishloq o'rmon va baliqchilik da – 55.5 % ni, savdoda – 50,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi tashish va saqlash da – 35,1 % ni, xizmatlar sohasida – 34,4 % ni va qurilishda – 34,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi xizmatlarda – 18,8 % ni, qurilishda – 12,7 % ni va tashish va saqlash sohasida – 8,8 % ni tashkil etdi.




Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha ko'payish deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 34,0 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 29,0 % ni va savdoda – 28,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 67,3 % ni, savdo sohasida – 62,1 % ni va xizmat ko'rsatish sohasida – 62,1 % ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlari kamaygan deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 11,7 % ni, xizmatlar sohasida – 10,3 % ni va savdo sohasida – 9,2 % ni tashkil etdi.



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidano'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari vamanfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.